

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

2022 yilning 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 42 325 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 31 893 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 75,4 foizini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 53,1 %), savdo (14,2 %), sanoat (9,3 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining

iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 yanvar holatiga)

	<i>Ro‘yxatga olangan</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	42 325	100,0	31 893	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	22 462	53,1	13 117	41,1
sanoat	3 945	9,3	3 654	11,5
qurilish	2 115	5,0	2 037	6,4
savdo	6 002	14,2	5 645	17,7
tashish va saqlash	640	1,5	601	1,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 496	3,5	1 398	4,4
axborot va aloqa	281	0,7	255	0,8
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	334	0,8	326	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 050	11,9	4 860	15,2

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 24 029 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 22 714 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 94,5 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (25,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (17,3 %), sanoat (16,4 %) va qurilish (8,8 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy

faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 yanvar holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	<i>Ro'yxatga olanganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	24 029	100,0	22 714	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 166	17,3	3 938	17,3
sanoat	3 945	16,4	3 654	16,1
qurilish	2 115	8,8	2 037	9,0
savdo	6 002	25,0	5 645	24,9
tashish va saqlash	640	2,7	601	2,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 496	6,2	1 398	6,2
axborot va aloqa	281	1,2	255	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	334	1,4	326	1,4
boshqa faoliyat turlari	5 050	21,0	4 860	21,4

**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 yanvar holatiga, birlik)**

	<i>2022 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga oltinganlar soni</i>	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-dekabr oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil etilganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>

Jizzax viloyati	42 325	5 251	7 785
------------------------	---------------	--------------	--------------

shahar:

Jizzax	6 953	1 154	713
--------	-------	-------	-----

tumanlar:

Arnasoy	2 499	269	879
Baxmal	3 612	419	541
G‘allaorol	4 860	506	1 019
Sharof Rashidov	5 812	714	1 237
Do‘stlik	1 927	227	280
Zomin	4 004	501	747
Zarbdor	3 491	398	310
Zafarobod	1 899	156	465
Mirzacho‘l	2 104	203	283
Paxtakor	2 057	239	256
Forish	2 273	346	765
Yangiobod	834	119	290

2021 yil yanvar-dekabr oylarida jami 5 251 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 5 122 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 1 154 tasi, yoki 22,0 %) hamda Sharof Rashidov (714 tasi, yoki 13,6 %) va G‘allaorol (506 tasi, yoki 9,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar
bo‘yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

	2022 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olanganlar	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-dekabr oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil etilganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>
Jizzax viloyati	24 029	4 502	2 507

shahar:

Jizzax	6 877	1 153	689
---------------	--------------	--------------	------------


tumanlar:

Arnasoy	836	173	83
Baxmal	1 525	354	157
G‘allaorol	2 099	457	171
Sharof Rashidov	3 527	596	468
Do‘stlik	1 041	205	115
Zomin	1 918	387	199
Zarbdor	1 200	232	108
Zafarobod	715	108	94
Mirzacho‘l	938	169	69
Paxtakor	1 114	220	65
Forish	1 688	344	221
Yangiobod	551	104	68

2021 yil yanvar-dekabr oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 4 502 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 4 373 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 1 153 tasi, yoki 25,6 %), Sharof Rashidov (596 tasi, yoki 13,2 %) va G‘allaorol (457 tasi, yoki 10,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil 1 yanvar holatiga – 20 760 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4 525 ta, oilaviy korxonalar – 1 809 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 13 961 ta, aksionerlik jamiyatları – 19 tani tashkil etadi.

**Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining
tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 31,4 foizi savdo, 22,7 foizi qishloq va o‘rmon xo‘jaligi va 18,7 foizi sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 2 507 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2022 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 221 tani tashkil etdi.

2022 yilning 1 yanvar holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 213 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 65 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 55 ta, Rossiya Federatsiyasi 52 ta, Amerika qo‘shma shtatlari 7 ta, Koreya Respublikasi 6 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 28 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatayapti.

Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 135 tasi qo'shma korxonalar, 78 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

2021 yil yanvar – dekabr oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni – 24 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 4 ta, Rossiya Federatsiyasi – 6 ta va boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 5 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2022 yil 1 yanvar holatiga, birlikda)**

	<i>2022 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni</i>	<i>shundan</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>

Jizzax viloyati	213	135	78
------------------------	------------	------------	-----------

shahar:

Jizzax	67	43	24
--------	----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	18	11	7
Sharof Rashidov	16	11	5
Do'stlik	8	5	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	30	23	7
Yangiobod	13	7	6

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**
(2022 yil 1 yanvar holatiga)

	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	213	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	37	17,4
Sanoat	118	55,5
Qurilish	12	5,6
Savdo	24	11,3
Tashish va saqlash	6	2,8
Yashash va ovqatlanish	2	0,9
Axborot va aloqa	3	1,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	9	4,2


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 213 ta korxonaning 118 tasi (55,5 %) sanoat, 37 tasi (17,4 %) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 24 tasi (11,3 %) savdo, 12 tasi (5,6 %) qurilish, 6 tasi (2,8 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,4 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) yashash va ovqatlanish, 2 tasi (0,9 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 9 tasi (4,2 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)


2022 yil 1 yanvar holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19 463 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2021 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 109,8 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5 788 tasi (29,7 %) Jizzax shahriga, 3 024 tasi (15,5 %) Sharof Rashidov, 1 650 tasi (8,5 %) G‘allaorol va 1 523 tasi (7,8 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda**
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 19 463 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 635 tasi (29,0 %) savdo, 3 889 tasi (20,0 foiz) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 3 620 tasi (18,6 %) sanoat, 2 032 tasi (10,4 %) qurilishda, 1 394 tasi (7,2 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 596 tasi (3,1 %) tashish va saqlash, 240 tasi (1,2 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 238 tasi (1,2 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1819 tasi (9,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining
iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da**
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



2021 yilning yanvar–dekabr oylarida 4 373 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2020 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 102,2 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (1 113 ta), Sharof Rashidov (585 ta), G‘allaorol (450 ta) va Zomin (376 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (100 ta), Zafarobod (104 ta), Mirzacho‘l (165 ta) hamda Arnasoy (168 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (1 412 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (1 015 ta), sanoat (837 ta), qurilish (251 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (248 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (55 ta), tashish va saqlash (61 ta) hamda axborot va aloqa (101 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022 yilning 1 yanvar holatiga 1 809 tani tashkil etdi, ulardan 1 661 tasi yoki 91,8 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining 690 tasi yoki 41,5 foizi sanoat, 322 tasi yoki 19,4 foizi savdo, 267 tasi yoki 16,1 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 255 tasi yoki 15,4 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9 tasi yoki 0,5 foizi sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 8 tasi yoki 0,5 foizi qurilish, 6 tasi yoki 0,4 foizi axborot va aloqa, 2 tasi yoki 0,1 foizi tashish va saqlash hamda 102 tasi yoki 6,1 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xususiy korxonalar soni

(2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan xususiy korxonalar soni **2022 yil 1 yanvar** holatiga ko‘ra 4 525 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 445 taga yoki 9,0 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 159 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 446 taga yoki 9,7 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 420 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 186 taga yoki 30,7 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 13 961 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2101 taga yoki 17,7 % ga oshganligini ko‘rsatmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 311 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 900 taga yoki 16,7 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3389 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 497 taga yoki 17,2 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

